



CLASSICAL PHILOSOPHICAL INTERPRETATIONS OF THE CONCEPT OF WAR AND ITS PHILOSOPHICAL ASPECTS

F.T. Shaymanov

National University of Uzbekistan

1st year independent researcher

fozil.9296.shaymanov@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: phenomenon of war, ontological, epistemological and axiological aspects of the phenomenon of war, theory of «Just war», «eternal peace», classical image of war.

Received: 23.05.26

Accepted: 24.05.26

Published: 25.05.26

Abstract: This article analyzes the classical philosophical interpretations of the concept of war and its ontological, epistemological and axiological aspects. Based on the views of thinkers from antiquity to modern philosophers, the essence, causes and role of war in the development of society are highlighted. The study is based on the fact that the phenomenon of war is not only a military-political phenomenon, but also a complex socio-philosophical process related to the contradictions of human nature, power, justice and values. As a result, generalized conclusions are given on the evolution of philosophical approaches to war and its modern interpretation.

URUSH TUSHUNCHASINING KLASSIY FALSAFIY TALQINLARI VA UNING FALSAFIY JIHATLARI

F.T. Shaymanov

O'zbekiston Milliy universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

fozil.9296.shaymanov@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Urush fenomeni, urush fenomenining ontologik, gnoseologik va aksiologik qirralari, "Adolatli urush" nazariyasi, "abadiy tinchlik", urushning

Annotatsiya: Ushbu maqolada urush tushunchasining klassik falsafiy talqinlari hamd a uning ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatlari tahlil qilingan. Antik davr mutafakkirlaridan tortib yangi davr

klassik obrazi.

faylasuflarigacha bo'lgan qarashlar asosida urushning mohiyati, sabablari va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotda urush fenomenining faqat harbiy-siyosiy hodisa emas, balki inson tabiatidagi ziddiyatlar, hokimiyat, adolat va qadriyatlar bilan bog'liq murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayon ekani asoslangan. Natijada urushga nisbatan falsafiy yondashuvlarning evolyutsiyasi hamda uning zamonaviy talqini yuzasidan umumlashgan xulosalar berilgan.

КЛАССИЧЕСКИЕ ФИЛОСОФСКИЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ КОНЦЕПЦИИ ВОЙНЫ И ЕЁ ФИЛОСОФСКИХ АСПЕКТОВ

Ф. Т. Шайманов

Национальный университет Узбекистана

1-й год работы, независимый исследователь

fozil.9296.shaymanov@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: феномен войны, онтологические, эпистемологические и аксиологические аспекты феномена войны, теория «справедливой войны», «вечный мир», классический образ войны.

Аннотация: В данной статье анализируются классические философские интерпретации понятия войны и её онтологических, эпистемологических и аксиологических аспектов. На основе взглядов мыслителей от античности до современности освещаются сущность, причины и роль войны в развитии общества. Исследование основано на том факте, что феномен войны — это не только военно-политический феномен, но и сложный социально-философский процесс, связанный с противоречиями человеческой природы, власти, справедливости и ценностей. В результате даются обобщенные выводы об эволюции философских подходов к войне и её современной интерпретации.

Kirish. Urush fenomeni insoniyat tarixining ajralmas va murakkab hodisalaridan biri bo'lib, u qadim zamonlardan buyon faylasuflar, siyosatchilar va mutafakkirlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida urush nafaqat davlatlar o'rtasidagi qurolli to'qnashuv sifatida, balki inson tabiatidagi ziddiyatlar, hokimiyatga intilish, adolat va manfaatlar qarama-qarshiligining ifodasi sifatida talqin etilgan. Shu bois urush tushunchasini

faqat harbiy yoki siyosiy kategoriya doirasida emas, balki chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lgan ko'p qirrali ijtimoiy fenomen sifatida o'rganish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Klassik falsafada urush masalasi turli nuqtai nazarlardan yoritilgan. Antik davr mutafakkirlari Geraklit, Platon, Aristotel urushni borliqdagi qarama-qarshiliklar qonuniyati, davlat manfaatlari va siyosiy tartib bilan bog'lab tushuntirgan bo'lsalar, yangi davr faylasuflari T. Gobbs, J.Russo, I. Kant, G. Gegel esa uni inson tabiatining ijtimoiy mohiyati, tabiiy holat, abadiy tinchlik g'oyasi hamda tarixiy taraqqiyot dialektikasi bilan izohlashga harakat qilganlar. Bu yondashuvlar urush fenomenining ontologik, gnoseologik va aksiologik qirralari mavjudligini ko'rsatadi.

Zamonaviy globallashuv sharoitida urushning shakl va ko'rinishlari o'zgarib borayotgan bir paytda, uning klassik falsafiy talqinlariga murojaat qilish nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki klassik meros urushning mohiyatini, uning kelib chiqish omillarini hamda insoniyat sivilizatsiyasiga ko'rsatgan ta'sirini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, mazkur ishning asosiy maqsadi urush tushunchasining klassik falsafiy talqinlarini tizimli ravishda tahlil qilish va uning asosiy falsafiy jihatlarini ochib berishdan iborat.

Adabiyotlar sharxi. Darhaqiqat, faylasuf Platon jamiyat taraqqiyotida urushni doimiy unsur deb hisoblagan. U "Davlat" asarida shunday deb yozadi: "...ko'pchilik odamlar tinchlik deb ataydigan narsa — faqatgina nom; aslida esa, tabiatan barcha davlatlar o'rtasida abadiy, yarashmas urush mavjud" (Платон. 1994. – С. 86.). Shuning uchun urush tasodifiy hodisa emas, balki siyosiy tuzumlar va davlat manfaatlari to'qnashuvidan kelib chiqadigan doimiy imkoniyat sifatida mavjud. Bu qarash urushni faqat qurolli to'qnashuv emas, balki davlatlararo munosabatlarning yashirin holati sifatida falsafiy jihatdan talqin qilish imkonini beradi.

Urushni ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilib, Aristotel ijtimoiy hayot ikki turdagi faoliyat - bevosita mashg'ulot va dam olishning kombinatsiyasi ekanligini yozadi: "insonning barcha faoliyati qisman zarur va foydali narsalarga, qisman go'zallikka qaratilgan" (Аристотель. 1984. – С.617). Aristotelning fikricha, urushning yakuniy maqsadi tinchlik, mehnatning maqsadi esa dam olishdir. Fuqarolarga bo'sh vaqtlaridan qanday foydalanish malakasini o'rgatish kerak. Shu bilan birga, faylasuf urushni insonning tabiiy holati sifatida ko'rmagan. U urushni siyosiy maqsadlar va davlat manfaatlari bilan bog'lagan.

O'rta asrlarda ijod qilgan Avliyo Avgustin "Adolatli urush" nazariyasining asoschisi hisoblanadi. Uning fikricha: "Urushning o'zi gunohli bo'lmasligi mumkin, agar u adolatni tiklash uchun olib borilsa" (Мусский И.А. 2000. – С. 73.). Avliyo Avgustin adolatli urushning quydagi shartlari mavjudligini ta'kidlagan, ya'ni:

- urush qonuniy hokimiyat tomonidan e'lon qilinishi;

- u tajovuzga qarshi himoya bo‘lishi;
- urush tinchlik va tartibni tiklash uchun bo‘lishi kerak.

Bu nazariya o‘rta asrlarda urushlarni axloqiy jihatdan «halol» yoki «gunohli» deb tasniflash imkonini bergan. Shunga ko‘ra, A.Avgustin gunohga to‘la Yer Shohligida tinchlik, urush bo‘lmagan davlat sifatida, mumkin emas, deb haqli ravishda hisoblagan.

Uyg‘onish davri urushga bo‘lgan munosabatni yanada o‘zgartirgan. Xususan, bu davrda urush diniy va siyosiy tabiatidan qat’iy nazar, yovuzlikka aylanganligini aytish mumkin. Ko‘pgina mutafakkirlar urushni qoralaydilar. Masalan, faylasuf Erazm Rotterdamskiy axloqli insonlar bir-birini o‘ldirishga qodir emas deb hisoblagan. Shuningdek, har qanday urushning natijasi halokat, o‘lim, falokat va axloqning tanazzulidir. Urushlarning tashabbuskorlari Muqaddas diniy kitobni hurmat qilmaydilar: “Agar sen bugungi jamiyatni buzuq, chunki undagi eng yomon odamlar buyuk kuchga ega deb hisoblasang, bilginki: urush paytida o‘taketgan jinoyatchilar hukmronlik qiladi” (Роттердамский Э. 1963. – С.61.). Bizningcha, jamiyatning buzilishi tasodifiy emas, balki urush va beqarorlik davrida axloqsiz, shafqatsiz va jinoyatga moyil shaxslar kuch va hokimiyatni qo‘lga oladi. Shu sababli bunday paytlarda adolat emas, zo‘ravonlik ustun bo‘ladi va jamiyat yanada tanazzulga yuz tutadi.

Ingliz faylasufi B.Spinoza esa, T.Gobbs ta’limotini to‘ldirib, tinchlikni qo‘lda qurol bilan himoya qilish kerakligini ta’kidlagan. Uning fikricha: “tinchlik urushning yo‘qligi emas, balki ruhning mustahkamligidan kelib chiqadigan himmatdir”. Unga ko‘ra, urush insoniyatning tabiiy holati emas, balki davlatlar o‘rtasidagi ixtilof va manfaatlar to‘qnashuvi natijasidir. U davlatlarni tabiat qonunlari doirasida kuzatib, urushni ijtimoiy va siyosiy hodisa sifatida talqin qilgan. B.Spinoza fikricha, odamlar va davlatlar har doim o‘z manfaatlarini himoya qilishga intiladi. Urush ko‘pincha qudrat va manfaatlar to‘qnashuvi sababli yuzaga keladi. Urush holatida davlatlar tinchlikni yo‘qotadi, bu esa insonlarning asosiy tabiatiga ziddir. Shu sababdan, urush davlatlar o‘rtasida ijtimoiy kelishmovchilik va nizolarning ifodasidir. Spinoza urush sharoitida ham tabiiy qonunlar va axloqiy tamoyillar amal qilishi kerak deb hisoblaydi. Uning uchun davlatning asosiy maqsadi fuqarolar farovonligi va tinchligini ta’minlashdir.

Metodlar. Urush insoniyatning dastlabki bosqichlaridan boshlab mavjud bo‘lgan ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy hodisadir. Falsafa bu hodisani har doim chuqur anglashga intilgan. U nafaqat urushning sabablari, balki uning axloqiy oqibatlari, inson ongi va jamiyatdagi o‘rni haqida savollar qo‘ygan. Urush shunchaki kuch ishlatish emas, balki siyosiy irodaning ifodasi (Klauzevits), axloqiy baholanishi kerak bo‘lgan harakat (I.Kant), tarixiy dialektikaning zaruriy bosqichi (G.Gegel), yoki insoniyatni sinovdan o‘tkazuvchi antropologik hodisa (B.Spinoza, J.Sartr) sifatida qaralgan. Shu bilan birga, urushni ijtimoiy o‘zgarishlar, yangilanishlar va davlat

qurilishi uchun turtki (G.Grotsiy) sifatida e'tirof etishgan. Shuningdek, keyinchalik erkinlik uchun kurash, zulmga qarshi vosita (K.Marks, ekzistensialistlar) va milliy g'urur va ijtimoiy birdamlikni shakllantiruvchi omil sifatida talqin qilingan.

MDH faylasuflari N.A.Berdyayev, I.A.Ilin, A.A.Kersnovskiy, A.A.Svechin, A.E.Snesarev, V.S.Solovyev, E.N.Trubeskoy, S.L.Frank, A.S.Xomyakov urushning ma'naviy va axloqiy tarkibiy qismiga e'tibor qaratib, uning klassik turini shakllantirishga katta hissa qo'shdilar.

Hozirgi vaqtda urush fenomenini tubdan o'zgartirishning eng muhim omili axborot texnologiyalarining rivojlanishi hisoblanadi. Axborot qurollarini g'ayrioddiy moslashuvchan, ko'p qirrali va ko'p funktsiyali, turli xil ta'sir usullarini birlashtira oladigan kuch deb ta'kidlash mumkin. Bu borada A.P.Alekseyev (Алексеев А.П. – С. 18-27.), N.A.Noskova (Носкова Н.А., Стеклова И.В. , 2017. № 11. – 71-74), G.G.Pochepsov (Почепцов Г.Г. 2000. – С. 576), V.F.Prokofyev (Прокофьев В.Ф. 2003. – С.395), V.I.Samoxvalova (Самохвалова В.И. 2011. № 3. – С. 54-73.) asarlari qiziqish uyg'otadi. Ular axborot urushini ommaviy ongini manipulyatsiya qilish deb bilishadi va ta'sirning texnik moslamalarini maqsadlarga erishish vositasi sifatida tasavvur etadi.

Muhokama va natijalar. Darhaqiqat, urush fenomeni insoniyat tarixining eng qadimgi hodisalaridan biri bo'lib, u bilan shu qadar chambarchas bog'langanki, inson jamiyatining mavjudligini usiz tasavvur qilish qiyin. Fridrix II, Immanuel Kant, Iogann Gottfrid Herder, Iogann Gottlib Fixte, Georg Vilgelm Fridrix Gegel, Karl Filipp Gotlib fon Klauzevits va boshqalarning asarlarida "abadiy tinchlik", urush va tinchlik muammosiga bag'ishlangan ko'plab traktatlar mavjud. Nemis mualliflari urush va tinchlik muammosiga turlicha yondashuvlarni ko'rsatganlar. Ba'zilar tarix taraqqiyoti muqarrar ravishda umumiy tinchlikka olib keladi degan qarashga amal qilgan bo'lsa, boshqalar urushlar va mojarolar muqarrarligini ta'kidlaganlar.

Binobarin, nemis faylasufi I.Kant abadiy tinchlik va abadiy osoyishtalik o'rtasidagi munosabat masalasini qo'yarkan, Fridrix II'dan farqli o'laroq, monarxiya sharoitida "abadiy tinchlik"ni o'rnatish mumkin, deb hisoblamagan. U "abadiy tinchlik"ni umumiy tinchlik shartnomasini tuzish bilan bog'lagan, ammo bu faqat respublika boshqaruv shakli sharoitida ro'y berishi mumkin, deb ta'kidlagan. Shu bilan birga, faylasuf I.Kantning "abadiy tinchlik"i kechiktirilgan bo'lib, uning yuzaga kelishi faqat kelajakda mumkin, deb hisoblangan. Shu munosabat bilan, yaqin kelajakda insoniyat xalqaro munosabatlarda uyg'unlikka erisha olishi qiyin edi. Bugungi kungacha dunyo urush va tinchlik o'rtasidagi nozik chegarada turibdi; u bir hududda yoki boshqa hududda halokatli chegaraga yaqinlashmoqda, undan narida esa "Pandora kutisi" ochilishi mumkin.

Undan farqli tarzda, nemis faylasufi G.Gegel esa urushni tarixiy taraqqiyot vositasi deb hisoblagan. Uning fikricha, urush ijtimoiy va siyosiy ziddiyatlarning yechilishi va yangi tartibning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Urushning natijasida yangi g'oya va davlat shakllari paydo bo'ladi. Shuning uchun urush insoniyat tarixining dialektik jarayonining muhim qismi hisoblanadi. U tarixni doimiy o'zgarish va qarama-qarshiliklar orqali rivojlanadigan jarayon deb tushuntirgan. Urush fikr va kuchlarning to'qnashuvi, tarixiy taraqqiyotda ziddiyatni hal qilish vositasidir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, urushning klassik falsafiy talqinini shakllantirishning asosi bu urushning qurolli zo'ravonlik yordamida davlat siyosatining davomi ekanligini asoslashdir. Urushning klassik obrazini yaratish doirasida urushni tadqiq qilishda quyidagilar uslubiy jihatdan muhim ahamiyatga ega: birinchidan, uning ijtimoiy asl mohiyatini aniqlash, ya'ni urush va jamiyat, urush va tinchlik o'rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash; ikkinchidan, davlatning urushning yagona qonuniy subyekti sifatidagi rolini anglash. Urushning klassik obrazining eng muhim elementi – bu uning ma'naviy sabablarini tahlil qilishdir. Agar harbiy nazariyotchilar e'tiborini urushning siyosiy jihatlari va uni olib borish usullariga qaratgan bo'lib, ular klassik urushning trinitar xarakterini ta'kidlasalar, falsafiy fikrlaydigan tadqiqotchilar urushni tugatish yoki uning ehtimolini minimallashtirish sabablarini aniqlashga harakat qildilar. Shu bilan birga, uning axloqsizligini, umuminsoniy qadriyatlariga zidligini ta'kidladilar. Ishonch bilan ta'kidlash joizki, qurolli vositalar yordamida davlat siyosatining davomi sifatida “urushning klassik obrazi” ta'rif va tahlil mantig'i ratsionallikning klassik turi bilan belgilanishi yoki eskirgan, yoki zamonaviy davrda haqiqatga mos kelmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Платон. Государство // Платон. Собрание сочинений в 4-х т. Т. 4. Законы. – М.: Мысль, 1994. – С. 86.
2. Аристотель. Сочинения в 4-х томах. Т. 4. – М.: Мысль, 1984. – С. 617.
3. Мусский И.А. 100 великих мыслителей. – М.: Вече, 2000. – С. 73.
4. Роттердамский Э. Жалоба мира // Трактаты о вечном мире. – М.: Издательство социально-экономической литературы, 1963. – С. 61.
5. Ильин И.А. Наши задачи. Историческая судьба и будущее России. Статьи 1948–1954 гг.: в 2 т. – М.: МП «Рарог», 1992. – С. 616.
6. Снесарев А.Е. Философия войны. – М.: «Ломоносовъ», 2013. – 288 с.
7. Соловьев В.С. Избранные произведения: в 2 т. Т. 1. – М.: 1988. – 892 с.
8. Хомяков А.С. О старом и новом. Статьи и очерки. – М.: Современник, 1988. – 462 с.

9. Алексеев А.П. Общество в условиях информационной войны: вопрос интеллектуального суверенитета // Философия и общество. – М.: Русский путь, 2017. № 2. – 18-27 с.
10. Носкова Н.А., Стеклова И.В. Специфика информационных войн в эпоху глобализации // Актуальные проблемы гуманитарных и социально-экономических наук. – Вольск: Тип. ВВИМО, 2017. № 11. – С.71-74.
11. Почепцов Г.Г. Информационные войны. Основы военно-коммуникативных исследований. – М.: «Рефл-бук», 2000. – С.576
12. Прокофьев В.Ф. Тайное оружие информационной войны: атака на подсознание. – М.: СИНТЕГ, 2003. – С.395.
13. Самохвалова В.И. Специфика современной информационной войны: средства и цели поражения // Философия и общество. – Волгоград: «Учитель», 2011. № 3. – С. 54-73.